



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

SUPPLIES FOR “LABOR SOLDIERS” MOBILIZED OF THE URALS FROM UZBEKISTAN

Kurbanov Khurshid Raupovich,

dotsent of Navoiy state university, candidate of historical sciens

Abstract. The article analyzes the life and activities of labor soldiers mobilized from Central Asia to construction and industrial enterprises in the Urals during World War II. Their social and living conditions, food supply, dormitory and housing problems are described. Labor conditions and social relations towards workers in the Chelyabinsk and Chkalov regions are analyzed.

Keywords: mobilization, "labor soldiers", World War II, Urals, state archives, Chelyabinsk, Chkalov, industry, construction, labor, food, supplies, disease.

O'ZBEKİSTONDAN JANUBİY URALGA SAFARBAR QILINGAN “MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA'MINOTI

Qurbanov Xurshid Raupovich,

Navoiy davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Ikkinci jahon urushi yillarda O'rta Osiyodan Ural hududlaridagi qurilish va sanoat korxonalariga safarbar qilingan mehnat armiyachilarining hayoti va faoliyati tahlil qilinadi. Ularning ijtimoiy-maishiy sharoiti, oziq-ovqat ta'minoti, yotoqxona va turar joy muammolari bayon etiladi. Chelyabinsk va Chkalov viloyatlaridagi mehnat sharoitlari va ishchilarga bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: safarbarlik, "mehnat armiyachilari", ikkinchi jahon urushi, Ural, davlat arxivlari, Chelyabinsk, Chkalov, sanoat, qurilish, mehnat, oziq-ovqat, taom, ta'minot, kasallik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N02>

Kirish. 1942-1944-yillarda Janubiy Ural sanoat korxonalari qurilishi va mehnat faoliyatiga O'rta Osiyodan safarbar qilingan 350 mingdan ortiq, jumladan 151 ming o'zbekistonlik yurtdoshlarimizning taqdirini o'rganish dolzARB mavzulardan biridir [1].

Avvalgi maqolalarimizda O'rta Osiyodan safarbar qilingan mehnat armiyachilarining safarbar qilinishi, ularni sanoat korxonalari bo'yicha taqsimoti, mehnat faoliyati turlari, yashash sharoitlari, maishiy holat va og'ir sinovlar haqida bayon qilganmiz.

Ushbu maqolada mehnat armiyachilarining og'ir va nobop sharoitlarda ijtimoiy hayoti, tura joy muammolari, ayniqsa oziq-ovqat ta'minotidagi masalalarni tahlil qilish dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Manbalar va adabiyotlar tahlili hamda metodologiya. Inson yashashi uchun eng muhim bo'lgan oziq-ovqat ta'minoti va sog'ligi masalasini tahlil qilishda arxiv va birlamchi manbalar asos bo'ladi. Ushbu maqolani talqin qilishda ham Rossiya Federatsiyasining Davlat arxivi (GARF), Rossiya Federatsiyasining ijtimoiy-siyosiy tarixi Davlat arxivi (RGASPI),

Chelyabinsk viloyati birlashgan Davlat arxivi (OGACHO), Orenburg viloyatining Yangi tarixi markaziy hujjatlar arxivi (SDNIOO) va boshqa manbalardan foydalanildi.

O'zbekistondan Ural hududlariga safarbar qilingan mehnat armiyachilarining jismoniy holatini yaxshi saqlab turish uchun ularning oziq-ovqat bilan ta'minlash va tibbiy-sanitariya xizmati ko'rsatish katta ahamiyatga ega. Ushbu xizmatlarning huquqiy asoslari Ittifoq Davlat mudofaa qo'mitasining 1942-yil 14-oktyabridagi 2414-soni Qarorining 9-bandi bilan mustahkamlangan edi.

Jumladan, safarbar etilganlarga umumiylashtirish asoslarda ish haqi to'lovini amalga oshirish belgilangan. Ishlab chiqarish va qurilishdagi ishchi kolonnalari tarkibini oziq-ovqat bilan ta'minlash va umumiylashtirishni tashkil qilish tegishli xalq komissariatlariga yuklatilgan. Jumladan, safarbar etilganlarni mudofaa sanoati korxonalarini ishchilarining me'yordi bo'yicha oziq-ovqat fondlari bilan ta'minlash Savdo xalq komissariati zimmasida bo'lgan [2; 39-b.].

Muhokama. Janubiy Uralning bir qator korxonalarida ishchilarini ta'minlashga mas'uliyat bilan yondashganlar. Mehnat armiyachilarining kunlik ta'minot me'yordi sovet nemislari mehnat armiyachilarini va mahbuslarining ta'minot me'yordiiga muvofiq bo'lib, o'rta osiyolik ishchilar ratsionida ayrim mahsulotlar biroz o'zgartirilgan edi. Qurilishda oladigan taom miqdori kunlik normalarni bajarish bilan bog'liq bo'lib, ishchilar uchun alohida normalar belgilangan edi.

1943-yilning fevral oyiga kelib kunlik mehnat evaziga ovqatlantirish me'yordiiga o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, "Chelyabstroy" qurilish brigadasida ishning turiga qarab og'ir va smena ishchilarini uchun turlicha bo'lgan. Ya'ni, smena topshirig'ini 79% foizgacha bajarganlar uchun (№1 ta'minot normasi) — kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) taom berilgan; Smena topshirig'ini 80% foiz va undan yuqori bajarganlar uchun (№2 ta'minot normasi) — kuniga uch mahal (ertalab, tushlikda va kechqurun) taom berilgan; Smena topshirig'ini 110 % foiz va undan yuqori bajarganlar uchun esa qo'shimcha rag'batlanuvchi taom berilgan.

Xuddi shuningdek, non tarqatish ham sutkalik ish me'yori va bajariladigan ishning turiga qarab taqsimlangan. Asosiy ishi og'ir toifaga, shuningdek yordamchi va xo'jalik xizmati ko'rsatish ishlariga bir mehnat armiyachisiga sutkasiga 300-800 gramm non berilgan; Sog'lomlashtirish-profilaktika punktlarida davolanayotganlar uchun 600 gramm non berilgan; Mehnat qobiliyati cheklangan va nogironligi bo'lgan ishchilarga tibbiy-mehnat komissiyalari belgilagan norma bo'yicha 600 grammdan ortiq bo'lмаган non berilgan. Shuningdek, ishlamaydigan nogironlar, ishi tergovda bo'lgan shaxslar uchun non berish normasi 400 grammni tashkil qilgan. Mehnatdan bo'yin tovlovchilar, soxta kasallar uchun (agar tibbiy ma'lumotnomasi bo'lmasa), jarima izolyatorlarida va ishga chiqarilmaydigan mahbuslar uchun esa 300 grammli non (4-tonli ta'minot normasi) belgilangan. Non berishning bu normasi karseda saqlanayotganlar uchun ham qo'llanilib, ularga issiq ovqat 3 kunda bir marta berish belgilangan [3; 167-183-b.lar].

1943-yilning ikkinchi yarmi va 1944-yilda ishchilarga sutkalik non miqdori va boshqa ba'zi bir oziq-ovqatlarni berishda o'zgarish (yaxshi tomonga) bo'lgan bo'lsa-da, yuborilgan ishchilar uchun kunlik non normasi o'zgarmagan. Faqatgina, ovqat ratsioniga qo'shimcha bo'lishi uchun Chelyabinsk metallurgiya zavodi ishchilari uchun Chelyabinsk viloyati ko'llarida baliq ovlashga ruxsat berilgan va buning uchun safarbar etilganlar orasidan 25 nafar kishilik baliqchilar arteli tuzilgan. Ushbu artelga bir oylik ov rejasiga 25 tonna qilib belgilandi.

O'HO mehnat armiyachilarining ish mehnati, samaradorligi va jismoniy holatlarini hisobga olib Janubiy Uralning ko'plab korxonalarini va qurilishlarida O'rta Osiyo respublikalari ishchilarga qo'shimcha ta'minot berish amaliyoti ham joriy qilingan. Jumladan, o'q-dorilar xalq komissariatining 24-sonli qurilish boshqarmasida mehnat armiyachilari menyusiga ikkinchi taom qo'shilgan [4; 5-b.]. Aloqa yo'llari xalq komissariatining 24-sonli qurilish boshqarmasida 5-sonli uchastkasidagi o'rta osiyolik ishchilar uchun qo'shimcha ravishda — 80 ta, 6-sonli uchastkada — 40 ta, 7-sonli uchastkada — 57 ta qo'shimcha oziq-ovqat kartochkalari ajratilgan [5; 14-16-b.lar]. Bundan tashqari mehnat armiyachilari uchun mazkur boshqarmaning har bir oshxonasida ko'k choy berish ham tashkil qilingan.

O'rta Osiyo respublikalaridan borgan ishchilarning oziq-ovqat ta'minotini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha choralar ham ko'rilib, "Chelyabko'mir" trestida konchilarning bir necha guruhlari O'rta Osiyo respublikalariga yuborilgan. Ular tomonidan 2,5 tonna bug'doy, 1,5 tonna un va 3 tonna turshak kabi oziq-ovqat mahsulotlari Chelyabinsk viloyati ko'mirchilari ishchi qo'rg'onlariga yetkazilgan. Olib borilgan oziq-ovqatlar mehnat armiyachilarining asosiy ratsioniga qo'shilgan. Shuningdek, ular o'zlarini bilan issiq kiyimlar ham olib ketishgan va ish sharoitlarini yaxshilashga birmuncha erishganlar.

Chelyabinsk va Chkalov viloyatining ko'mir shaxtalari va ochiq konlarida ishga qabul qilingan mehnat armiyachilari uchun Ko'mir sanoati xalq komissarligi (KSXK) tomonidan bevosita yer ostida ko'mir shaxtalarida ishlovchilar uchun № 1 va № 2 toifa me'yordi bo'yicha oziq-ovqat berilgan.

KSXK korxonalarida O'HO mehnat armiyachilariga oziq-ovqat ta'minotining kunlik normalari va kaloriyasi, 1942-1944 yy [6;18-b.]

Ko'rsatkichlar/ Oziq-ovqatlar	Norma			
	№ 1		№ 2	
	gramm	kaloriya	Gramm	kaloriya
Non	1000	2170	1000	2170
Go'sht	100	170	67	114
Baliq	50	35	40	28
Moylar	33	112	30	102
Krupa	100	341	67	228
Kartoshka	400	265	267	177
Jami:	1683	3093	1471	2819

Ushbu jadvaldan ko'mir qazib olishda band bo'lgan konchilarga ko'paytirilgan oziq-ovqat normasi berilganligini ko'rish mumkin. Oziq-ovqat ro'yxatiga konditer va non-bulka mahsulotlari ham kiritilgan bo'lib, lekin Chelyabinsk ko'mir havzasi shaxtalarining ishchilari amalda bu mahsulotlarni olmaganlar. Bundan tashqari reja topshiriqlarini ortig'i bilan bajargan konchilarga: bir oy uchun 1,5 kg go'sht yoki baliq, 1,5 kg krupa, 300 moy qo'shimcha oziq-ovqat mahsulotlari sifatida berilgan [7; 29-b.]. Shaxtalarning oshxonalarida kunlik ratsionning bahosi 5-7 so'mni tashkil qilgan.

Chelyabinsk Kirov zavodidagi mehnat armiyachilariga oziq-ovqat ta'minoti zavod sexlaridan berilgan. Bundan tashqari Traktorzavodi rayonidagi o'rta osiyolik ishchilarning

istiqomat qilayotgan 5-sonli uchastkadagi baraklarning birida ikkinchi oshxona faoliyati yo'lga qo'yilgan.

1943-yilning ikki oyi davomida oziq-ovqatni berish normasi oshirib borildi va 1943-yilning birinchi martidan qo'shimcha mehnat qilgan ishchilarga ta'minot ikki martaga oshirilgan.

Eskirgan uskunalarda ishlaydiganlarga kamaytirilgan miqdorda non tarqatilgan. Masalan, 1943-yilning 16-yanvaridan 21-yanvarigacha zavod oshxonalar 25,1 tonna non kam olgan. 1943-yilning 8-oktyabrida zavod oshxonalar 1 bir sutkali 43 tonna non o'rniga 29 tonna non (sutkalik iste'molning 67,44%) olganligi hujjatlarda aks etgan. Shu holatda ham nonning sifati juda past (xom) bo'lgan" [8; 90-b.].

Bronetank zavodi uchun non miqdori va sifati haqidagi masala uzoq vaqt hal etilmagach VKP(b) Chelyabinsk Kirov zavodi partiya tashkiloti rahbari M.D.Kozin mazkur muammo bo'yicha VKP(b) Chelyabinsk viloyati birinchi kotibi N.S.Patolichevga xat bilan murojaat qilgan.

Natijalar. Ishlab chiqarish xodimlarining ta'minoti ko'pincha zavod oshxonalar xodimlarining o'z xizmat vazifalariga vijdonsizlarcha yondashuvi natijasida yomonlashgan. Oshxonalarining ayrim xodimlari O'HO mehnat armiyachilarining kartochkalaridan "...hisoblangan oziq-ovqat normasidan" ko'prog'ini kesib olganliklari natijasida "...oziq-ovqat kartochkasi 22-25 kunga yetgan, xolos. Oyning qolgan kunlari xodim non (oshxona har doim ham tayyorlamaydigan) sabzavot taomlariga (maxsus talonlar bo'yicha) qanoat qilishga majbur bo'lganlar". Shunga qaramasdan, taom porsiyalari og'irligi belgilangan normadan kam bo'lgan holatlar uchrab turgan. Chelyabinsk Kirov zavodining 7-sonli ishchilar oshxonasini tekshirish vaqtida "ishchilarga doimiy ravishda belgilangan mahsulotlar kam berilishi, 65 g suyaksiz go'sht o'rniga ishchilar 45 g suyakli go'sht berilganligi aniqlangan.

Bundan holatlar "Kopeyskko'mir" tresti va 208-sonli shaxtaning umumi ovqatlanish shoxobchalarida ham bo'lgan. Bunday holatlar davriy matbuot materiallarida ham o'z aksini topgan edi. Jumladan, "Chelyabinsk ishchisi" gazetasi sahifalarida: "Ko'p vaqtarda shaxtalardagi ishchilar ta'minotsiz qolishmoqda.... Biz ko'rgan 204-sonli shaxtaning oshxonasidagi vaziyatni boshqa shaxtalarning oshxonalarida ham uchratish mumkin. Brigadalar uchun go'shtli taomlar yetishmaydi, 50 ta taom o'rniga 37 ta taom berishadi, non kam o'lchanadi, taomlar mazasiz tayyorlanadi va sovuq holda beriladi [9].

O'zbekistonlik mehnat armiyachilarining talablariga ko'ra mehnat qilgan sanoat va qurilish obyektlarida ta'minotni yaxshilash uchun ishchilar oshxonalarida milliy taomlarini tayyorlanishi kerak edi. Ushbu talab SSSR savdo xalq komissariatining 1943-yil 20-iyuldag'i 323-sonli ko'rsatmasida ham o'z aksini topdi [10;104-b.].

Bir muncha vaqtdan so'ng, Chelyabinsk shahri qurilish otryadlarida mehnat qilayotgan mehnat armiyachilar uchun "maxsus stollar qo'yilib ularga o'rta osiyolik ishchilarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar birkitilgan. Ovqat umumiyo qozonda tayyorlangan, tushlik milliy taomlarni hisobga olib tayyorlanadigan bo'lgan. Jumladan, musulmon xalqlar uchun yot bo'lgan cho'chqa moyi -o'simlik yoki hayvon moyi bilan, cho'chqa go'shti esa — qo'y yoki mol go'shti bilan almashtirilgan, shuningdek, taomlarga ko'kat va ziravorlar ham solingan".

Xulosa. Umuman olganda, bir O'rta Osiyodan safarbar qilingan mehnat armiyachilarining og'ir sharoitlardagi mehnati, ularning turmush sharoiti, qismati ayanchli bo'lsa-da, ular ikkinchi jahon urushidagi g'alabaga munosib hissa qo'shdilar.

Joylarda mehnat armiyachilarining muammolari – kiyim-kechak va oziq-ovqatning yetmasligi muammosi sanoat va qurilish obyektlarining barcha jamoalari uchun mavjud bo'lgan muammolarning bir qismi bo'lgan. Bunga yana faqat ushbu kontingentga aloqasi bor muammolar qo'shildi. Mehnat armiyachilarining boshqa madaniyat, odatlar, an'analar va diniy e'tiqodli aholi yashaydigan hududda yashashi va ishlab chiqarish faoliyatini yuritish asosiy muammo bo'lgan. O'zbekistondan tashqarida ta'minot ratsionining va iqlim sharoitlarining o'zgarishi qo'shimcha muammolarni tug'dirdi.

O'zbekistonlik mehnat armiyachilariga nisbatan ish joylarida mensimaslik, yotoqxonalarda ayrim komendantlar tomonidan kaltaklash holatlari ham bo'lganligini qayd qilish shart. Mehnat armiyachilari o'rtasida kasalliklar ham o'lim holatlari ham bo'lgan. Mazkur dalillar, shuningdek yashash va mehnat faoliyati sharoitlarining qiyinligi ayrim ishchilarning ish joylarini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishiga sabab bo'lgan.

Har bir ishchi iqlim va sharoitlarga moslashishga harakat qilishib, boriga qanoat qilib, halol mehnat qilishgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ushbu mavzudagi maqolalar "Vodiynoma" jurnalining 2023-yilning 4, 5-sonlarida e'lon qilingan.
2. RGASPI. 644-fon, 1-ro'yxat, 63-ish.
3. OGACHO. R-1619-fond, 1-ro'yxat, 18-ish.
4. RGASPI. 17-fond, 122-b., 50-ish.
5. OGACHO. P-288-fond, 8-ro'yxat, 261-ish.
6. RGASPI. 644-fond, 1-ro'yxat, 66-ish.
7. OGACHO. P-288-fond, 4-ro'yxat, 302-ish.
8. OGACHO. P-124-fond, 1-ro'yxat, 355-ish.
9. // Chelyabinskiy rabochiy, 1944 yil 13 fevral soni.
10. OGACHO. P-288-fond, 8-ro'yxat, 261-ish.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).